



## ROSSIYA FEDERATSIYASI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH TAJRIBASIDAN

**Muxitdinova Xadicha Sobirovna,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori,  
pedagogika fanlari doktori*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995164>

**Annotatsiya:** Maqolada tillarni o'rganishning umumiy va xususiy maqsadlardan kelib chiqadigan ta'limiy yondashuvlar va tamoyillar xususida fikr yuritiladi. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, o'zbek tilini rossiyalik talabalarga xorijiy til sifatida o'qitishda talabalarning lingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini uyg'un holda rivojlantirish maqsadi bo'yicha amalga oshirilgan tajribasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, ta'lim tamoyillari, umumiy maqsadlar, xususiy maqsadlar, til ko'nikmalari, ijtimoiy-madaniy yo'nalish, leksik minimum, grammatik minimum.

Ma'lumki, til ta'limida bir-biridan farq qiladigan turli xil yondashuvlar – tilni ona tili sifatida o'qitish va tilni ikkinchi til sifatida o'qitish farqlanadi. Ayni vaqtda tilni ikkinchi til sifatida o'qitishning o'zi ham tilni til muhitida o'qitish (ya'ni, til sohiblari yurtida) hamda til muhiti mavjud bo'lmagan shart-sharoitda (ya'ni, xorijiy mamlakatlarda) o'qitish yo'nalishlariga bo'linadi. Har bir yo'nalishda o'qitish va o'rganishning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, ta'lim mazmuni va metodlari shunga mos holda tanlanadi. Ushbu tamoyillar, avvalo, umumiy va xususiy maqsadlardan kelib chiqadi.

Umumiy maqsadlar – bu tilni shu til sohiblari, o'zaro muloqot yuritish, ular yashayotgan yurt bilan yaqindan tanishish maqsadiga yo'naltirilgan bo'lib, unda til ko'proq so'zlashuv nuqtai nazaridan, ya'ni o'zaro muloqot yurita olish maqsadida o'rganiladi. Xususiy maqsadlar – tilni maxsus sohaviy yo'nalishlarda yoki ma'lum bir tadqiqot olib borish maqsadida o'rganish bo'lib, tilni nisbatan chuqur, ilmiy akademik darajaga yetkazib o'rganishni taqozo etadi. Xususiy maqsadlarga o'tish yo'li umumiy maqsadlardan boshlanadi [1]. Til o'rganishdan maqsad – xalqlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarni o'rnatish ekanligidan kelib chiqqan holda, tilni kasbiy-sohaviy o'qitish va til ko'nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy-madaniy yo'nalishlardagi autentik materiallar bilan ishlash ko'zda tutilgan maqsadga erishish, ya'ni ularni o'zbek tilida og'zaki va yozma muloqot yuritishga o'rgatishdan iborat.

Ushbu yondashuvlar va tamoyillardan kelib chiqqan holda, o'zbek tilini xorijiy



mamlakatlarda, xususan, Rossiya Federatsiyasida 2 xil dastur: “Prakticheskiy kurs uzbekskogo yazыka” (“O‘zbek tilining amaliy kursi”) [2] va «Professionalnaya kommunikatsiya» dasturlari asosida [3] o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunda birinchi dastur asosida talabalarni hozirgi zamon o‘zbek tilida tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularni o‘zbek tilida og‘zaki va yozma muloqot qilishga o‘rgatish va nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, ikkinchi dastur orqali esa talabalarning pragmatik, ijtimoiy-madaniy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini uyg‘un holda rivojlantirish maqsadi ko‘zda tutiladi. Bunda o‘qitish leksikografik ishlar, dialoglar, matn ustida ishlash, tarjima mashqlari orqali talabalarni til sohiblarining turmush tarzi bilan tanishtirish va mamlakat hayotiga olib kirish, buni milliy realiyalar, milliy an‘analar, urf-odatlar, muomala odoibiga oid nutqiy etiket qoliplaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Barchaga ma‘lumki, keyingi yillarda tillarni o‘qitishda yangi tamoyillar yuzaga kela boshladi. Ikkinchi til ta‘limida kasbiy muloqot yuritishga o‘rgatish maqsadida tillarni sohaviy yo‘nalishda o‘qitish, ijtimoiy-madaniy unsurlar vositasida o‘qitish tamoyillari keng tatbiq qilinmoqda. Xususan, xorijliklarni o‘rganayotgan tili sohiblarining turmush tarzi, madaniyati, moddiy va ma‘naviy qadriyatlari, didi, qiziqishlari va boshqa milliy xususiyatlari bilan tanishtirib borish xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, shu xalq vakillari bilan bevosita muloqot yuritishida ko‘prik vazifasini o‘tashga xizmat qiladi.

Tajribadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, aynan shu yo‘nalishda tilni o‘rgatishni boshlash tezroq samarali natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Rossiya Federatsiyasining Moskva davlat lingvistik universitetida o‘zbek tilini rossiyalik talabalarga o‘qitish bo‘yicha 2009-2010 yillarda amalga oshirilgan ilk amaliy tajribalar rus va o‘zbek tillari genetik va tipologik jihatdan bir-biridan keskin farq-tafovutli bo‘lsa-da, biri flektiv, ikkinchisi agglutinatив tillar guruhiga kirsa-da, o‘zining samarali natijasini juda tez ko‘rsatdi. Bunda aynan o‘zbek tilini o‘rgatishda ijtimoiy-madaniy unsurlardan foydalanish, o‘zbek xalqining turmush tarzi, milliy-madaniy qadriyatlari bilan tanishtirib borish ularni o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqishlarining nihoyatda kuchayib ketishiga sabab bo‘ldi.

Tillarni o‘rgatishda har bir dars xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarining kesishgan nuqtasi bo‘lishi kerak. Tajriba jarayonida amaliy o‘zbek tilini o‘rgatishda birorta dars faqat sof grammatikani o‘rgatishga bag‘ishlanmasligi kerak, har bir darsda dialoglarda, kichik matnlarda, hatto so‘zlar vositasida ijtimoiy-madaniy yoki



kasbiy-sohaviy yo'naltirilgan tarzda olib borilishi kerak degan xulosaga keldim. Masalan, tanishuvga bag'ishlangan dastlabki darslardayoq o'zbek tilida ism va familiyalarning tuzilishi haqida ma'lumot berish jarayonida talabalar o'z ismlariga mazmunan yaqin keladigan yoki o'zlariga yoqib qongan ismlarni tanlab olib o'zlariga o'zbekcha ismlarni qo'yib olishdi va ochiq darsda o'zlarini shu ismlar bilan tanishtirishdi. Albatta, bu jarayonlarda o'zbek tilidagi nutq tovushlarining talaffuzi, so'zlarda urg'uning qo'yilishi, gap va jumlar ohangi ustida ishlab boriladi. Eng asosiysi, talabalarning o'rgangan so'zlarini nutqda, o'zaro dialoglar tuzishda, gap tuzishda erkin qo'llay olishlariga erishish bo'ldi, albatta. Bu o'rinda leksik minimumni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tajribalar va o'zbek tilini xorijliklarga o'qitish bo'yicha keyingi yaratilgan metodik qo'llanmalar xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishning boshlang'ich A1 va tayanch A2 darajalari uchun leksik minimumni ajratishda quyidagilar e'tiborga olinishi maqsadga muvofiqligini dalilladi:

- xorijliklarga o'zbek tili ko'p hollarda androgogik ta'lim ekanligi e'tiborga olinishi va taqdim qilinadigan leksika ham androgogik bo'lishini ta'minlash;

- tanishishda, o'zaro aloqa o'rnatishda ishlatiladigan so'zlar qatlami ish, o'qish, ijtimoiy aloqalarda keng qo'llanadigan so'z va iboralardan iborat bo'lishiga e'tibor qaratish;

- aynan xorijliklarni qiziqtiradigan so'zlar qatlami, masalan, milliy madaniy realiyalar, ularning qisqa izohi bilan tanishtirishga alohida o'rin ajratish;

- sayyohlik uchun zarur bo'ladigan nutq etiketlariga (murojaat shakllari, turli vaziyatlarda kerak narsa, shaxs, joy haqida ma'lumotlarni so'rab bilish) keng berish;

- ijtimoiy muhitda va rasmiy uchrashuvlarda vaziyatlarga mos muloqot yuritish iboralari bilan tanishtirish;

- ish, sohaviy faoliyatda kasbiy-sohaviy muloqot yuritish uchun zarur bo'ladigan so'z va iboralar bilan tanishtirish [4].

Ta'kidlash mumkinki, «Professionalnaya kommunikatsiya» darslari amliy o'zbek tili darslari materiallarini aprobat siya qilish, amaliy qo'llash jarayonini tezlashtirishga yordam berdi. Leksik minimum, albatta, har bir daraja uchun alohida tuzilishi va borgan sari keng miqyosni qamrab olishi kerak bo'ladi. O'rganilayotgan til leksikasini o'zlashtirishda illustrativ materiallardan foydalanishning o'rni nihoyatda katta bo'lib, bularga suratlar, audio va video materiallar, milliy kiyimlar, milliy qo'shiqlar va hokazolar kiradi.



Xususan, bugungi kunda keng qo'llanayotgan audio materiallar o'zbek tilidagi nutq tovushlarining to'g'ri talaffuzini shakllantirishga, so'zlarni talaffuz qilishda nutq tempini to'g'ri tanlash, gap va jumla mazmuniga mos ohang tanlash maqsadiga xizmat qilsa, video materiallar esa o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy turmush tarzini, qadriyatlari va madaniyati, mamlakatning bugungi ijtimoiy-siyosiy holatini ko'rib o'rganishga, tanishishda, o'zaro aloqa o'rnatishda ishlatiladigan so'zlar qatlami ish, o'qish, ijtimoiy aloqalarda keng qo'llanadigan so'z va iboralardan iborat bo'lib, talabalarni bir yo'la kasbiy kommunikatsiyaga olib kirishga ham yordam beradi. Bularning barchasini lingvistik kommunikatsiyasi bilan uyg'unlashtirib boorish, xususan, to'g'ri talaffuz me'yorlarini shakllantirishda she'rlarni ifodali o'qitish katta yordam beradi. Bunda ham amaliy o'zbek tili darslarini o'tish jarayonida ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi she'rlardan foydalanish orqali 2 dasturni uyg'unlashtirish samarali natija beradi. Jumladan, o'zbek tilida so'roq olmoshlari, so'roq gaplarning tuzilishi va qo'llanish ohangini mustahkamlashda **-mi** so'roq yuklamasi ko'p ishtirok etgan o'zbek xalqining sevimli shoiri Erkin Vohidovning *«Lola»* she'ridan foydalanish katta natija berganini qayd etish mumkin. Talabalar ushbu she'r matni orqali nafaqat lisoniy bilimlarga, balki o'zbek xalqining ijtimoiy turmush tarzi haqida ham tushunchalarga ega bo'lib boradilar [5].

Albatta, tilni grammatikasiz o'rganib bo'lmaydi, grammatik qoidalarsiz to'g'ri nutq tuzib ham bo'lmaydi, shu bois o'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda grammatik minimumni ham aniqlab olish kerak bo'ladi. Grammatik minimumni belgilashda o'zbek tilining agglutinativ xususiyatlaridan kelib chiqish va imkon boricha avval qo'shimchalar kam ishlatiladigan so'z shakllaridan (masalan, A1.1 darajada faqat otli birikmalar ishtirok etgan jummalarni qo'llash) foydalanish, keyin tarkibida 3-4 tadan qo'shimchalar ishtirok etadigan so'zlarni (masalan, A1.2 darajadan boshlab fe'l va fe'lli birikmalarni) nutq jarayoniga kiritib borish maqsadga muvofiq [4].

Shulardan kelib chiqqan holda biz o'zbek tilini xorijliklarga o'qitishning o'quv-dasturiy ta'minotini tuzishda dastlab leksik-grammatik minimumlarni darajalarga mos holda ajratib olish va o'zbek tili mashg'ulotlarini tashkil etishda ijtimoiy-madaniy unsurlardan uyg'un holda foydalanishga katta e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz. Bu notil muhitida o'zbek tilini o'rganuvchilarining lingvistik, pragmatik, ijtimoiy-madaniy va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini uyg'un holda rivojlantirish orqali ularning amaliy nutq ko'nikmalarini tezroq shakllantirishga va tilni intensiv egallash imkoniyatlarining ortishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maqsudova H.F. Farmasevtika yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy layoqatini rivojlantirish: ped. fanl. b-cha falsafa dokt. diss. (PhD). –T., 2021. – 154 b.
2. Практический курс второго иностранного языка (узбекский язык, рабочая программа) / Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. – Москва, МГЛУ, 2010.
3. Профессиональная коммуникация (узбекский язык, рабочая программа) / Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. – Москва, МГЛУ, 2010.
4. Madjidova R.U. va b, Xorijliklar uchun o'zbek tilidan multimedia mahsulotlari majmuasi: electron darslik so'zlashgich, lug'at, milliy-madaniy so'zlar glossariysi (o'zbek-rus tili, electron majmua). O'zR Adliya Vazirligi Intellektual mulk agentligining mualliflik guvoohnomasi, № DGU 005875.– Toshkent, 2023.
5. Muxitdinova X.S., Nasilov D.M. Узбекский язык. (для стран СНГ). – Москва: Восточная литература, 2012. – 390 с.
6. Ismailovna S. Z. Linguistic-psychological factors of teaching Russian-speaking students to Uzbek monologue speech //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 134-137.